



«TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSIYA, INTEGRATSIYA VA
ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR»
XALQARO ILMIY AMALIY KONFERENSIYASI

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ:
«ИННОВАЦИИ, ИНТЕГРАЦИЯ И СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ
ТЕХНОЛОГИИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ»

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE:
«INNOVATION, INTEGRATION AND MODERN PEDAGOGICAL
TECHNOLOGIES IN THE EDUCATION SYSTEM»



QISM
ЧАСТЬ
PART




**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE

**“Ta’lim tizimida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy pedagogik
texnologiyalar”**
mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2025-yil 12-mart)

Материалы международной научно-практической конференции
**“ИННОВАЦИИ, ИНТЕГРАЦИЯ И СОВРЕМЕННЫЕ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ”**
(12 марта 2025 г.)

Materials of the international scientific and practical conference on
**“INNOVATION, INTEGRATION AND MODERN PEDAGOGICAL
TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL SYSTEM”**
(March 12, 2025)




Ta'lim tizimida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy pedagogik texnologiyalar // Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – Namangan. 2025-yil, 12-mart. – 392 b.

Ushbu to'plamda ta'limda pedagogika va psixologiyaga doir masalalar, adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari, tilshunoslik sohasining bugungi kundagi muammo va yechimlari, ta'limda innovatsiya, integratsiya va ilg'or pedagogik texnologiyalarga doir ilmiy asoslangan tadqiqotlar muhokamasi o'rin olgan.

Uzluksiz ta'limning barcha bo'g'ini uchun malakali kadrlar tayyorlash borasida olib borilayotgan tizimli islohotlar yuksak madaniyatli, amaliy kasbiy ko'nikmaga ega, tarbiya, o'qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy kadrlarni shakllantirish jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur ilmiy-amaliy konferensiyaning o'tkazilayotganligi ham bugungi kunda ilm-fan sohasidagi yangiliklarni o'rganish, amaliyotga tadbiq etish hamda yosh tadqiqotchilarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan e'tiborning namunasidir.

Konferensiya materiallari to'plami University of Business and Science o'quv-uslubiy Kengashining 2025-yil, 12-martdagi 8-sonli yig'ilish bayoni bilan nashr etishga tavsiya etilgan.



I-SHO‘BA. TA’LIMDA PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYAGA DOIR MASALALAR

СЕКЦИЯ 1. ВОПРОСЫ ПЕДАГОГИКИ И ПСИХОЛОГИИ В ОБРАЗОВАНИИ

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING AXLOQIY TARBIYADAGI AHAMIYATI

Boymirzayev Karimjon Mirzaahmedovich,
University of Business and Science rektori,
geografiya fanlari doktori, professor.
Abdukaxxarova Noila Nematullo qizi,
University of Business and Science
M.PP-23-01 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimining o'rni, uning asosiy yo'nalishlari va innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida qanday rivojlantirilayotgani tahlil qilinadi. Globallashuv jarayonining ta'lim tizimiga ta'siri, axborot texnologiyalarining integratsiyasi, ta'lim jarayonining moslashuvchanligi va individualizatsiyasi kabi masalalar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'quvchilarning axloqiy tarbiyasiga ta'siri va ularning ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirishdagi o'rni muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, pedagogik innovatsiyalar, axloqiy tarbiya, globalizatsiya, axborot texnologiyalari.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль системы образования в современном обществе, ее основные направления и развитие с использованием инновационных педагогических технологий. Анализируется влияние глобализации на систему образования, интеграция информационных технологий, гибкость и персонализация учебного процесса. Кроме того, обсуждается влияние современных педагогических технологий на моральное воспитание учащихся и их роль в развитии чувства социальной ответственности.

Ключевые слова: система образования, педагогические инновации, моральное воспитание, глобализация, информационные технологии.

Abstract. This article analyzes the role of the education system in modern society, its main directions, and its development through innovative pedagogical technologies. It examines the impact of globalization on education, the integration of information technologies, the flexibility and personalization of the learning process. Additionally, the influence of modern pedagogical technologies on students' moral education and their role in developing a sense of social responsibility are discussed.

Keywords: education system, pedagogical innovations, moral education, globalization, information technologies.

Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimi faqat bilim berish vositasi emas, balki yosh avlodning axloqiy rivojlanishini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish nafaqat o'quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etish, balki ularning axloqiy fazilatlarini rivojlantirish uchun ham zarurdir. Bu fikrlarni Yuldashev o'zining

“Pedagogik innovatsiyalar va ta’lim texnologiyalari” asarida quyidagicha ta’kidlaydi: “Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini optimallashtirish vositasi bo’lib, talabalar shaxsiy kamoloti va axloqiy yetukligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega”¹. Shu sababli, axloqiy tarbiya masalalariga zamonaviy yondashuvlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularning ta’lim jarayonidagi roli bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatning rivojlanishi bevosita ta’lim tizimi bilan bog’liq. Chunki har qanday mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyoti uning ta’lim sifati bilan chambarchas bog’liq. Ilmiy-texnik taraqqiyot, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va globallashtirish sharoitida ta’lim tizimining doimiy ravishda modernizatsiya qilinishi zaruratga aylanmoqda. Bugungi kunda nafaqat an’anaviy ta’lim yondashuvlari, balki zamonaviy pedagogik texnologiyalar ham faol joriy etilib, ta’lim jarayonining interaktiv va innovatsion bo’lishiga e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim jarayonida sun’iy intellektdan foydalanish, masofaviy o’qitish platformalarining kengayishi, moslashuvchan va shaxsiylashtirilgan o’quv dasturlarining rivojlanishi bugungi ta’lim tizimining o’ziga xos xususiyatlaridan biridir. Zamonaviy jamiyatda ta’lim nafaqat bilim berish vositasi, balki insonning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladigan muhim ijtimoiy institutga aylanmoqda. Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda ta’lim tizimining o’rni, uning asosiy yo’nalishlari va zamonaviy texnologiyalar yordamida qanday rivojlantirilayotgani tahlil qilinadi.


Globallashtirish jarayoni hozirgi dunyoda barcha sohalarga, jumladan, ta’lim tizimiga ham kuchli ta’sir ko’rsatmoqda. N.To’rayev “Innovatsion ta’lim tamoyillari va amaliyoti” nomli asarida quyidagicha qayd etadi: “Globallashtirish sharoitida axloqiy tarbiya faqat an’anaviy usullar bilan emas, balki zamonaviy pedagogik texnologiyalar vositasida ham amalga oshirilishi zarur”². Axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanishi, iqtisodiy va madaniy integratsiya, raqamli transformatsiya ta’lim tizimini yangi pedagogik texnologiyalar bilan boyitish zaruratini tug’diradi. Bugungi kunda an’anaviy ta’lim tizimi zamonaviy talabalar ehtiyojlariga mos keladigan yondashuvlar bilan boyitilmoqda. Ayniqsa, raqamli ta’lim, moslashuvchan o’qitish metodlari va innovatsion pedagogik texnologiyalar global ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Globallashtirishning ta’lim tizimiga ta’siri quyidagi asosiy yo’nalishlarda namoyon bo’lmoqda:

1. Axborot texnologiyalarining ta’lim jarayoniga integratsiyasi – onlayn ta’lim platformalarining rivojlanishi, sun’iy intellekt (AI) va raqamli resurslarning qo’llanilishi.
2. Ta’lim jarayonining moslashuvchanligi va personalizatsiyasi – talabalar ehtiyojiga moslashtirilgan o’quv dasturlarining yaratilishi.
3. Ta’limning xalqaro integratsiyasi – turli davlatlar o’rtasida talabalar almashinuv dasturlarining rivojlanishi.
4. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi – tajribaviy va amaliy o’qitish usullaridan keng foydalanish.

¹ Yuldashev Q. Pedagogik innovatsiyalar va ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2009. – 215 b.

² To’rayev N. Innovatsion ta’lim tamoyillari va amaliyoti. – Toshkent: Ilm Ziya, 2018. – 189 b.



Globallashuv sharoitida ta'lim tizimi nafaqat texnologik taraqqiyotga moslashishi, balki zamonaviy o'quvchilarning ehtiyoj va qobiliyatlarini hisobga olishi zarur. Globallashuv holatda ta'lim tizimi yangicha pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishni talab qilmoqda. Innovatsion yondashuvlar ta'lim jarayonini yanada samarali, interaktiv va shaxsiylashtirilgan qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar quyidagilarga yordam beradi: • O'quvchilarning faolligini oshirish.


- Bilim olish jarayonini yanada qiziqarli va interaktiv qilish.
- Shaxsiy yondashuv orqali har bir talabaning ehtiyojlariga mos ta'lim berish.
- Tashqi muhit bilan integratsiyani kuchaytirish va xalqaro tajribalarni o'zlashtirish.

Shu sababli, pedagoglar va ta'lim muassasalari zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish, innovatsion metodlarni ta'lim jarayoniga keng joriy etish va o'quvchilarni yangi sharoitlarga mos ravishda tayyorlashga e'tibor qaratishlari lozim. Zamonaviy ta'lim innovatsiyalarga asoslangan bo'lib, u kelajak avlodni yanada raqobatbardosh va bilimli shaxs sifatida tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

Bugungi global axborot jamiyatida ta'lim jarayoni nafaqat bilim olish, balki o'quvchilarning shaxsiy, axloqiy va ma'naviy rivojlanishiga ham xizmat qilishi kerak. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali o'quvchilarning faolligini oshirish, ularning mustaqil fikrlashi va hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Shuningdek, bu texnologiyalar talabalarning axloqiy tarbiyasini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. An'anaviy ta'lim metodlarining o'rnini innovatsion pedagogik texnologiyalar egallab, o'quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvini rivojlantirishga qaratilgan yangi strategiyalar ishlab chiqilmoqda. Bu jarayonda nafaqat bilim olish va o'qitish usullarining takomillashuvi, balki axloqiy tarbiyaning ham mazmun jihatdan chuqurlashishi muhim ahamiyat kasb etadi. Axloqiy tarbiya shaxsning umuminsoniy qadriyatlarni anglashiga, ijtimoiy mas'uliyatini his qilishiga va jamoada o'zini munosib tutishiga xizmat qiladi. Pedagogik texnologiyalarning zamonaviy ta'lim jarayonida tutgan o'rni beqiyos bo'lib, ularning asosiy maqsadi talabalarning shaxsiy rivojlanishini, tanqidiy tafakkurini shakllantirish va axloqiy normalarga asoslangan ijtimoiy xulq-atvorni rivojlantirishdan iboratdir. Har qanday ta'lim jarayoni, faqatgina akademik bilim berish bilan cheklanmay, balki shaxsiy sifatlarni shakllantirish, axloqiy tamoyillarni singdirish va ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar faqatgina ta'lim samaradorligini oshirish vositasi bo'lib qolmay, balki axloqiy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Piagetning fikricha "Bola axloqiy tushunchalarni o'z hayotiy tajribasi va mustaqil fikrlashi orqali shakllantiradi"¹.

Axloqiy tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va individual yondashuv bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Ta'limning interaktiv metodlari, innovatsion texnologiyalar va shaxsiylashtirilgan yondashuvlar orqali talabalar nafaqat axloqiy

¹ Piaget, J. *The Psychology of Intelligence*. Routledge & Kegan Paul. 1950.



bilimlarni o'zlashtiradilar, balki ularni hayotiy qadriyat sifatida qabul qilishga o'rganadilar. "Axloqiy tarbiya texnologiyalar asosida tashkil etilganda, talabalarda nafaqat axloqiy tafakkur, balki ijtimoiy mas'uliyat hissi ham shakllanadi"¹. Ta'lim jarayonida individual yondashuv asosida pedagogik texnologiyalarni joriy etish axloqiy tarbiyaning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa kelajak avlodning ma'naviy yetuk va jamiyatga foydali shaxs sifatida shakllanishiga muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

XXI asrda ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar, virtual va tajribaviy ta'lim yondashuvlari keng tatbiq etilmoqda. Bu jarayonda axloqiy tarbiyani rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish talabalar ongida axloqiy qadriyatlarni chuqurroq singdirishga va ularning axloqiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. "Zamonaviy ta'lim tizimida axloqiy tarbiya" asarida shunday qaydlar bor: "Axloqiy tarbiya jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar joriy qilinishi nafaqat axloqiy mezonlarni singdirishga, balki talabalar tafakkurini ham rivojlantirishga xizmat qiladi"²

Demak, axloqiy tarbiyani samarali shakllantirish uchun o'quvchilarga erkinlik, tanqidiy fikrlash imkoniyati va mustaqil faoliyat yuritish muhiti yaratilishi lozim. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar aynan shunday shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. Ular quyidagi yo'nalishlarda axloqiy tarbiya jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yuldashev Q. Pedagogik innovatsiyalar va ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2009. – 215 b.
2. To'rayev N. Innovatsion ta'lim tamoyillari va amaliyoti. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2018. – 189 b.
3. Piaget, J. (1950). The Psychology of Intelligence. Routledge & Kegan Paul.5.
<https://lex.uz/docs/-4428097>
4. Usmonov R. Ta'limda axloqiy munosabatlarni shakllantirish. – Toshkent: Ma'naviyat, 2014. – 198 b. 5. Otajonov Sh. Zamonaviy ta'lim tizimida axloqiy tarbiya. – Toshkent: Innovatsiya Ziyo, 2021. – 276 b.

ОБ АКТУАЛЬНОСТИ СОЗДАНИЯ СЛОВАРЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ НА УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Саттаров Б.К.,

проректор по учебной части

University of Business and Science,

доцент, кандидат педагогических наук.

Рахматова Г.Т.,

Преподаватель University of Business and Science

Аннотация: Актуальность создания словаря педагогических терминов на узбекском языке обусловлена необходимостью систематизации и унификации педагогической терминологии в условиях развития национальной системы образования. В современном образовательном

¹ Usmonov R. Ta'limda axloqiy munosabatlarni shakllantirish. – Toshkent: Ma'naviyat, 2014. – 198 b.

² Otajonov Sh. Zamonaviy ta'lim tizimida axloqiy tarbiya. – Toshkent: Innovatsiya Ziyo, 2021. – 276 b.